

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI - PHILOLOGICAL SCIENCES**Received:** 20 November 2025**Accepted:** 1 December 2025**Published:** 15 December 2025*Article / Original Paper***CONTEMPORARY SEMANTIC, PRAGMATIC, AND SOCIOCULTURAL ANALYSIS
OF THE LEXEMES “HALAL” AND “HARAM” IN THE UZBEK LANGUAGE****Mamadaliyeva Naibaxon,**

Doctor of Philology, Professor

E-mail: naibakhon@bk.ru**Orifboyev Abdulloh**

Head of Department, Technical Regulation Agency

under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article provides a comprehensive analysis of the semantic structure, pragmatic value, and sociocultural functions of the lexemes “halal” and “haram” in the Uzbek language. It examines the historical sources of their formation, the semantic core associated with religious and legal traditions, as well as the expanded layers of meaning that manifest within social relations. The study scientifically substantiates the role of the concept “halal” as a universal moral and spiritual value closely linked to honest labor, lawful income, and human purity. The concept of “haram” is analyzed as a normative category that ensures the internal moral order of society, carries strong emotional impact, and reflects mechanisms of legal and social control.

Keywords: halol, harom, semantics, pragmatics, sociocultural linguistics, derivation, metaphorization, Uzbek language, ethical norms, cultural concepts.

**O‘ZBEK TILIDA “HALOL” VA “HAROM” LEKSEMALARINING ZAMONAVIY
SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI****Mamadaliyeva Naibaxon,**

filologiya fanlari doktori, professor

Orifboyev Abdulloh

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston

Texnik jihatdan tartibga solish

agentligi Boshqarma boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada “halol” va “harom” leksemalarining o‘zbek tilidagi semantik tarkibi, pragmatik qimmat va sotsiomadaniy vazifalari kompleks tarzda tahlil qilingan, leksemalarning tarixiy shakllanish manbalari, diniy-huquqiy an‘analar bilan bog‘liq semantik o‘zagi, ijtimoiy munosabatlarda kengaygan ma’no qatlamlari yoritiladi. Maqolada “halol” tushunchasining halol mehnat, daromad va insoniy poklik bilan chambarchas bog‘liq universal ma’naviy qadriyat sifatidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslanadi. “Harom” tushunchasining jamiyatning ichki axloqiy tartibini ta’minlovchi, kuchli emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lgan, huquqiy va ijtimoiy nazoratni ifodalovchi normativ kategoriya sifatidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: halol, harom, semantik tahlil, pragmatika, sotsiomadaniyat, derivatsiya, metaforizatsiya, o‘zbek tili, ma’naviy me’yorlar, xalq tafakkuri.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N43>

Kirish. O'zbek tilida "halol" tushunchasi inson hayotining barcha qatlamlarini qamrab olgan ma'naviy va huquqiy kategoriya sifatida shakllangan. Bu tushuncha faqat shariatdagi qonuniylikni anglatib qolmay, insonning ichki pokligi, niyatining tozaligi va muomalasining samimiyatini ham qamrab oladi. Halollik o'zbek ma'naviyatida yuksak qadriyat sifatida qaraladi, u millatning ma'naviy o'zagini tashkil etuvchi fazilatlaridan biridir.

«Halol» so'zi o'zbek tilida turli ma'nolarni ifoda etadi va kontekstga qarab bir nechta semantik qatlamga ega. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ushbu so'z quyidagicha izohlanadi[1]:

Birinchidan, «halol» so'zi diniy nuqtai nazardan, ya'ni shariat qoidalariga muvofiq foydalanish mumkin bo'lgan narsalarni ifoda etadi. Bu ma'noda so'z asosan harom va halol tushunchalari orasidagi farqni belgilaydi. Adabiy manbalarda, masalan, A. Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari» asarida, so'z insonning halolligi va ma'naviy pokligi bilan bog'lanadi: «Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol bo'lsin». Bu yerda «halol» atamasi nafaqat huquqiy yoki iqtisodiy ma'noda, balki axloqiy qadriyat sifatida ham qo'llanilgan.

Ikkinchidan, «halol» so'zi ko'chma ma'noda inson mehnati va pokligi bilan bog'liq xususiyatni ifoda etadi. Bu kontekstda halollik — shaxsning o'z mehnati bilan, adolatli va sohil yo'l bilan ishlashi, xiyonat va g'irromlikdan xoli bo'lishi demakdir. R. Fayziyning «Cho'lga bahor keldi» asarida va Shuhratning ijodida bu tushuncha haqiqiy mehnatkashlik va ishga sadoqat sifatida tasvirlanadi: «To'g'ri tut ishingni va halol yasha!». Shuningdek, gazetada keltirilgan misollar mehnatkashlik va oilaviy mas'uliyat bilan bog'langan, bolalarni halol pul bilan boqish, demak, halollik atamasi jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qadriyatlarga ham daxldorligini ko'rsatadi.

Uchinchi ma'nosida, «halol» so'zi shaxsning axloqiy sifatini ta'riflaydi. Bu yerda halollik — g'irromlik va qing'irlikka o'rganmaganlik, to'g'ri va sofdillik sifatida tushuniladi. Sh. Rashidovning ijodi va Zargarov misollarida halollik shaxsning mehnatkashligi, mehribonligi va adolatliligi bilan uzviy bog'langan. A. Qahhor va A. Oripov asarlarida ham halollik odamning ma'naviy pokligi va jamiyatdagi obro'si sifatida ko'rsatilgan.

To'rtinchidan, «halol» so'zi nikoh va huquqiy munosabatlarda qonuniylikni ifoda etadi. Bu ma'noda so'z asosan xotin haqida qo'llaniladi va uning qonuniy, ya'ni nikohdan kelib chiqqan munosabatini belgilaydi. A. Qodiriy va S. Siyoyev asarlarida ham bu ma'no ijodiy kontekstda qo'llanib, ijtimoiy normalar va inson munosabatlarida halollik qadriyatlari aks ettirilgan.

Beshinchidan, sport kontekstida «halol» so'zi g'alabani adolatli va sof bo'lishini ifoda qiladi. O'zbek kurashi misolida bu atama raqobatda pok va qonuniy g'alabani ta'riflaydi.

«Harom» so'zi ham o'zbek tilida asosan diniy, axloqiy, ijtimoiy va kundalik hayot kontekstida qo'llaniladi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»ga ko'ra, so'z bir necha ma'noga ega[2]:

Birinchidan, diniy nuqtai nazardan, «harom» — Shariat qoidalariga muvofiq yeyish, ichish va foydalanishga yaramaydigan, halol emas narsalarni ifoda qiladi. Bu ma'noda so'z diniy qoidalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, isboti adabiy manbalarda ham uchraydi. Misol uchun, S. Anorboyevning «Oqsoy» asaridagi «U Ashir bilan qo'l berib so'rashishga hazar qilibdi. Chunki Ashir cho'chqaboqar-da!» so'zi cho'chqaning shariatda harom maxluq sifatida qaralishi bilan bog'liq. Shuningdek, «Eshakning kuchi halol, go'shti harom deganlaridek» iborasi halol va harom tushunchalari o'rtasidagi farqni aniq ko'rsatadi.

Ikkinchidan, «harom» so'zi an'ana, qoida yoki jamiyat tartibi bo'yicha man etilgan ish yoki xatti-harakatlarni ifoda qiladi. Bu ma'noda haromlik nafaqat diniy, balki ijtimoiy va axloqiy

me'yorlar bilan ham belgilanadi. S. Siyoyev asaridan olingan misolda: «To'g'ri bo'l, haromdan hazar et, degansiz. Yig'lab turgan g'aribning yoniga kir, ko'nglini ol, degansiz», — deya ta'kidlanganidek, haromlik shaxsning axloqiy va ijtimoiy harakatlariga ham daxldor bo'lishi mumkin. Shuningdek, Mushtum va Mirmuhsin misollarida harom pul va harom yo'l bilan topilgan mahsulotlar, hamda bunday odamlar haqida ijtimoiy tahlil qilingan.

Uchinchidan, so'zning semantikasida jinsiy va sog'liq kontekstlari ham mavjud. «S. t.» (sog'liq tushunchasi) ostida, jinsiy munosabatdan so'ng g'usl qilmagan, cho'milmagan holatlar ham «harom» deb ataladi. Bu ma'noda atama insonning tozalik va qoidabuzarlikka oid xususiyatini ifoda qiladi.

To'rtinchidan, «harom» so'zi foydalanish mumkin bo'lmagan yoki esiz ketgan narsalarga nisbatan ham qo'llanadi. S. Anorboyev va T. Alimov asarlaridagi misollar shunday kontekstda keltirilgan: «U bu majlisga Saidg'ozini bilan birga kechalari uyqusini harom qilib tayyorlandi», «yo haftada bir keladigan dam olish kunini ham haromga chiqarib, bozor-o'char qilsinmi?» Bu yerda «harom» faqat diniy ma'no bilan cheklanmay, balki kundalik hayotda vaqt va imkoniyatlarni yo'qotishni ham ifoda etadi.

Shuningdek, «harom» so'zining turli kontekstlardagi qo'llanishi, ya'ni diniy, axloqiy, ijtimoiy va kundalik hayotdagi ma'nolari, o'zbek madaniyatidagi poklik, adolat va ma'naviy normalar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Adabiy misollar va qo'llanmalar bu so'zning semantik va pragmatik qirralarini boyitib, uning til va madaniyatdagi ahamiyatini ochib beradi.

Usullar. Tadqiqot quyidagi usul va manbalarga tayangan holda amalga oshirildi: nazariy asos sifatida leksik-semantik tahlil, metaforizatsiya va pragmatik faollashuv jihatlarini inobatga olindi; ushbu nazariy modellar o'zbek tili materiallariga qo'llanib, o'zbek xalq og'zaki ijodi, qo'lyozma manbalar, klassik adabiyot, zamonaviy OAV va internet nutqi kontekstlari tahlil qilindi; tahlil jarayonida leksik-semantik va pragmatik tahlil, etnolingvistik yondashuv, kontekstual tahlil hamda qiyosiy tilshunoslik usullari qo'llanildi; shuningdek, rus tilidagi jarayonlar bilan o'zbek tilidagi jarayonlarni qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Natijalar. «Halol» tushunchasining zamonaviy talqinida yangi pragmatik jihatlar namoyon bo'lmoqda. Bozor iqtisodiyoti rivoji, mahsulot xavfsizligi, oziq-ovqat sifatini nazorat qilish mexanizmlarining kuchayishi, xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarining ommalashuvi natijasida «halol» atamasi qaytadan semiotik qiymat kasb etdi. Hozirgi kunda O'zbekistonda «halol» belgisi nafaqat diniy ehtiyoj, balki sifat kafolati sifatida ham qabul qilinmoqda.

Jahon iqtisodiyoti va global savdo munosabatlari tobora diversifikatsiyalanayotgan bir davrda xalqaro bozorda muayyan talab va qoidalarga asoslangan mahsulotlar segmenti alohida yo'nalish sifatida shakllandi. Ulardan biri islom huquqshunosligida qonunga muvofiq, ruxsat etilgan degan ma'noni anglatuvchi «Halol» standartlari asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozoridir[3]. Bu yo'nalish nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki global miqyosda ham talab yuqoriligi bilan ajralib turmoqda. Bugungi kunda dunyo aholisining salmoqli qismini tashkil etuvchi ikki milliarddan ziyod musulmonlar uchun iste'mol qoidalarida «Halol» talablari ustuvor hisoblanadi.

«Halol» standartlari avvalo diniy-axloqiy asoslarga tayanadi. Islom qonun-qoidalariga ko'ra, inson tanovul qiladigan oziq-ovqat, ichimlik, dori-darmon va hatto xizmat ko'rsatish turlari ham ma'lum me'yorlarga javob berishi kerak. Masalan, go'sht mahsulotlari muayyan

tartibda so'yilishi, qo'shimchalarda spirt yoki iflos moddalar bo'lmasligi, ishlab chiqarish jarayonida poklik qoidalariga amal qilinishi talab etiladi.

Iste'molchi nega mahsulotni «halol» sertifikatidan o'tgan va sifatli deb baholaydigan tovarga afzallik berishi sababini anglash uchun standartlar mazmuniga baho berish zarur. «Halol» sertifikatlashtirish turli talablarga ega bo'lgan standartlar asosida amalga oshiriladi. Malayziya standarti MS 1500:2009ning 3.5.1.6-bo'limida shunday deyilgan: «Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlar (GMO) mahsulotlari va/yoki ularning qo'shimcha mahsulotlarini o'z ichiga olgan oziq-ovqat va ichimliklar, shuningdek, shariat qonunlariga zid bo'lgan hayvonlar genetik materiali asosida olingan ingrediyentlar "halol" hisoblanmaydi»[4]. Demak, «halol» standartlari tarkibida GMO mahsulotlari va ingrediyentlar bo'lishini istisno etadi.

GMO mavjud emasligi bilan birga, eng ko'p qo'llaniladigan «halol» sertifikatlash standartlarida, xususan Codex Alimentarius komissiyasi tayyorlagan standart[5] hamda Malayziya standarti MS 1500:2009[6] da «halol» sertifikatlash jarayonida alkogol yoki boshqa mast qiluvchi va ongni zaiflashtiruvchi moddalar saqlovchi mahsulotlar ham istisno qilinadi[7].

Shunday qilib, «halol» sertifikatlash jarayonida tarkibida GMO, alkogol va turli mast qiluvchi moddalar bo'lgan mahsulotlar yo'q qilinadi. Bu esa o'z xavfsizligi maqsadida yuqorida tilga olingan moddalarning mavjud emasligiga qiziqqan iste'molchi, uning dinidan qat'i nazar, «halol» sertifikatiga ega tovarni tanlashini ta'minlaydi. Shu sababdan «Halol» so'zi ortiqcha tushuntirishsiz iste'molchilarga ishonch va kafolat ramzi sifatida xizmat qiladi.

Demak, «halol» sertifikatidan o'tgan mahsulot standartlarda belgilangan qat'iy talablar tufayli sifatli va xavfsiz tovar sifatida baholanib, yuqori talabga ega bo'ladi.

Barcha musulmon mamlakatlarida halol mahsulotlar uchun o'z milliy standartlari mavjud bo'lib, hozirgi vaqtda ularning uyg'unlashtirilishi yoki o'zaro tan olinishi yo'q. Hozirgi vaqtda quyidagi halol mahsulot standartlari keng qo'llanilmoqda: Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Islom mamlakatlari standartlar va metrologiya institutining (OIC/SMIIC) standarti, Fors ko'rfazi arab davlatlari standartlashtirish tashkiloti (GSO) standarti, Malayziyaning MS standarti va boshqalar[8].

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimini joriy qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2025-yil fevral oyida mahsulot va xizmatlarni «Halol» talablariga muvofiq sertifikatlashtirish faoliyatini hamda «Halol» belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va xizmatlardan foydalanishni tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorga ko'ra mamlakatda rasman «Halol» sertifikati joriy etildi[9]. Bu qaror xalqaro savdo tizimidagi talablarga javob berish, eksport imkoniyatlarini oshirish va iste'molchilar ishonchini mustahkamlash yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Mazkur qaror nafaqat ichki bozorda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish, balki tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Chunki dunyo bozoridagi musulmon mamlakatlari va musulmon diasporalari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish uchun «Halol» sertifikati asosiy talablardan biri sifatida qo'yiladi.

Shu nuqtai nazardan «Halol» sertifikati masalasi nafaqat diniy yoki milliy me'yorlarga, balki iqtisodiy strategiyaga ham bevosita bog'liq. Agar mamlakat xalqaro bozorda o'z mahsulotlari bilan munosib raqobatlasha olmoqchi bo'lsa, u holda ishlab chiqarish jarayonlarini global standartlarga moslashtirishi shart. «Halol» sertifikati ana shunday global standartlardan biri sifatida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim omilga aylanmoqda.

Mahsulotlar, xizmatlar va ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan “halol” belgisining qo'llanilishi nafaqat diniy ehtiyoj, balki iqtisodiy raqobatning muhim qismiga aylanib bormoqda. Bu o'zbek iste'molchisi uchun “sifat, ishonch va xavfsizlik” ramzi sifatida qabul qilinadi.

“Harom” tushunchasi esa o'zbek tilida o'ta kuchli emotsional va axloqiy baholash quvvatiga ega bo'lib, jamiyat ongida eng og'ir ma'naviy ayb sifatida qabul qilinadi. Bu so'z shariatda taqiqlangan amaliyotlarni bildiradi, ammo xalq ongida u axloqiy buzilish, nohaqlik, zulm, yolg'on, o'zga haqini yemoq kabi salbiy holatlarning umumiy nomiga aylangan. “Harom” taqiq ma'nosidan tashqari qattiq ayblash ma'nosini ham oladi, shuning uchun tildagi “haromxo'r”, “haromzada”, “harom niyat”, “harom yo'l” kabi iboralar semantik jihatdan keng, ta'sirchan va qat'iy ma'noga ega.

O'zbek tilida esa “harom” tushunchasi jamiyat ongining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, u axloqiy tartibning markaziy elementidir. Bu jihat shuni ko'rsatadiki, Ragasova va Xusnutdinov tomonidan qayd etilgan semantik kengayish o'zbek tilida ancha chuqur va keng qamrovli. Ular ta'kidlaganidek, rus tilida “xaram” ayrim hollarda axloqiy nomuvofiqlikni bildirsa, o'zbek tilida u hayotning deyarli barcha jabhalarida ma'naviy nazorat mexanizmining asosiy vositasidir.

Halol va harom tushunchalarining o'zbek tilidagi metaforizatsiya jarayoni ham diqqatga sazovor. “Halol niyat”, “halol munosabat”, “halol mehr” kabi iboralar moddiy narsalar emas, balki ma'naviy holatlarning pokligi va samimiyatini ifodalaydi. Shuningdek, “harom yo'l”, “harom ish”, “harom qadam” kabi ifoda shakllari insonning niyatidagi buzuvchilikni, jamiyat qoidalariga zid harakatlarni, ma'naviy-axloqiy normalarni buzilishini anglatadi. Bu holat Ragasova va Xusnutdinov qayd etgan rus tilidagi metaforizatsiya jarayoni — “xalyalnie dengi”, “xaramnie postupki” kabi iboralar bilan ma'no jihatidan teng[10]. Ammo o'zbek tilidagi metaforaning kuchli tomoni shundaki, u xalq ongida asrlar davomida shakllangan axloqiy-etik tizimning ajralmas qismiga aylangan.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan “halol” va “harom” tushunchalari o'zbek tilida faqat diniy-huquqiy me'yorlar doirasida emas, balki iqtisodiy, siyosiy, maishiy, oilaviy, pedagogik, hatto psixologik kontekstlarda ham faol qo'llanilmoqda. Mahsulot bozorlarida “halol” belgisi sifat va xavfsizlik ramziga aylangan bo'lsa, mehnat bozorida “halol daromad” insonning iqtisodiy faoliyatidagi adolat va halollikni bildiradi. Oilaviy munosabatlarda “halol hayot” erining pok niyati, halol mehnatga asoslangan tirikchiligi, halol nikoh va halol muhabbat tushunchalari bilan bog'lanadi. Bu jarayonlar xalq ongidagi ma'naviy qadamlarning zamonaviy sharoitda qayta shakllanishiga olib kelmoqda.

“Harom” tushunchasi esa zamonaviy siyosiy va ommaviy diskursda ham faol qo'llanilmoqda. Jamoatchilik nutqida turli korrupsiya holatlari, mansabdan foydalanish, davlat mablag'larini talon-toroj qilish kabi holatlar “harom ish”, “harom pul” sifatida qat'iy qoralanadi. Bu holat “harom” tushunchasining maishiy va diniy doiradan chiqib, zamonaviy fuqarolik ongidagi adolat o'lchovi sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu rus tilidagi “xaram”ning faollashuviga oid tadqiqotdagi xulosalarni qiyosiy jihatdan tasdiqlaydi.

Halol-harom konsepti o'zbek madaniyatida insonning botiniy tozaligi, ma'naviy yuksakligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini belgilaydigan universal me'yorlardan biridir. Bu tushunchalar tildagi semantik maydon orqali ommaviy ongga yo'naltiriladi va insonning barcha harakatlarini axloqiy filtr orqali baholashga xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, bu

leksemalarning ijtimoiy qiymati tilning o'zgaruvchan tabiati va madaniyat bilan o'zaro bog'liq rivojlanishini ko'rsatadi.

Muhokama. O'zbek tilidagi "halol" va "harom" leksemalarining semantik va pragmatik rivojlanishi, ularning zamonaviy til va jamiyat ongida tutgan o'rni o'zgarmas diniy kategoriyalardan muloqot va ma'naviy tartibning universal qonuniyatiga aylanganini ko'rsatadi. Bu jarayonni chuqur tahlil qilish, o'zbek madaniyatining ichki mantig'ini, tarixiy qatlamlarini va hozirgi ijtimoiy o'zgarishlarni anglash uchun alohida ahamiyatga ega.

O'zbek tilida "halol" tushunchasi xalq ongida oddiy ruxsat etilishdan yuqori darajadagi ma'naviy me'yor sifatida yashaydi. U insonning ichki tozaligi, halol mehnat qilish, halol daromad topish va halol munosabatda bo'lish kabi keng ma'naviy vazifalar bilan bog'langan. Bunday mazmunlar xalq ijodiyotida, maqol-matallarda, diniy va irfoniy adabiyotlarda, zamonaviy nutqda, rasmiy diskursda, hatto iqtisodiy munosabatlarda ham keng uchraydi. Insoniy tarbiya tizimida bolaga birinchi o'rgatilgan qadriyatlardan biri aynan halollikdir. Halol ko'rish, halol hayot kechirish, halol niyat bilan ish boshlash – bularning barchasi milliy mentalitetning ajralmas ma'naviy asosidir.

"Harom" tushunchasi esa o'zbek madaniyatida yanada kuchli axloqiy va emotsional salmoqqa ega. U faqat diniy taqiqni emas, balki butun jamiyat uchun umumiy bo'lgan ma'naviy cheklovni anglatadi. "Harom" deb belgilangan ish o'z mohiyatiga ko'ra jamiyat tomonidan keskin qoralanadi, chunki u insoniy poklikka, adolatga, to'g'rilikka, mehnatga rag'bat va insof kabi qadriyatlarga zid hisoblanadi. Bu tushunchada jamiyat tomonidan shakllantirilgan kuchli tartib-intizom mavjud. "Haromxo'r" degan ayblov o'zbek ongida nafaqat diniy yoki huquqiy taqiqni buzgan insonni, balki umumiy insoniy me'yorlarni poymol qilgan shaxsni ham nazarda tutadi. Demak, "harom" tushunchasi axloqiy nazoratning iste'mol qilinishi emas, balki insonni tarbiyalovchi, jamiyatni tartibga soluvchi ma'naviy tuzilmaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Rus tilida "xaram" tushunchasi axloqiy va ba'zan ritorik jihatdan qo'llanilsa-da, u jamiyat ongidagi axloqiy tartibning markaziy elementiga aylangani yo'q. O'zbek tilida esa aksincha – u jamiyatning ichki tartibini belgilaydigan qonun darajasidagi ma'naviy me'yordir. Harom tushunchasining o'zbek tilidagi semantik kuchi unga nisbatan qo'llanilgan har bir iborani keskin emotsional va ma'naviy ta'sirga ega ayblovga aylantiradi. Bu jamiyat ongidagi haqiqat, adolat va insoniylik me'yorlariga asoslangan ifoda vositasidir[11].

Halol va harom tushunchalarining o'zbek tilidagi rivoji zamonaviy sharoitda yangi qirralarni kasb etmoqda. Halol mahsulotlar sertifikatlashuvining rivoji, xalqaro savdo munosabatlarida "Halal industry"ning kengayishi, turizm va xizmat ko'rsatish sohasida halol standartlarining paydo bo'lishi, o'zbek tilida bu tushunchalarga nisbatan iqtisodiy va jamiyatshunoslik nuqtai nazaridan yangicha talqinning kuchayishiga olib keldi. Mahsulot yetishtirishda halol tamoyiliga amal qilish, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologiyalarning pokligi, xizmat ko'rsatish jarayonlarining etik talablarga muvofiqligi – bularning barchasi halol tamoyilining zamonaviy talqinlarini yaratadi.

Harom tushunchasi ham zamonaviy hayotda yangi qo'llanish sohalarini topmoqda. Mansabdorning huquqbuzarliklari, davlat mablag'larini talon-toraj qilish, arzimagan mablag' evaziga inson qadrini poymol qilish kabi holatlar ko'pincha jamoatchilik tomonidan "harom ish" yoki "harom pul" deb baholanadi. Bu holat harom tushunchasining jamiyatning siyosiy ongida ham muhim kategoriyaga aylanganini ko'rsatadi. Shu tariqa, bu tushuncha axloqiy me'yordan fuqarolik pozitsiyasini bildiruvchi baholovchi kategoriyaga aylandi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, “halol” va “harom” leksemalarining derivatsiyalanishi o‘zbek tilida juda faol bo‘lib, ulardan yaratilgan yangi so‘zlar tilning o‘z qonuniyatlariga moslashgan va turli nutqiy holatlarda semantik jihatdan to‘g‘ri joy olgan[12]. “Halollik”, “halol qo‘l”, “halol niyat” kabi qiyoslar tildagi ma‘naviy-pragmatik munosabatlarni belgilaydi. “Haromzada”, “haromxo‘r”, “harom oylik” kabi derivatlar esa jamiyatning keskin tanqidiy munosabatini ifoda etadi. Bunday shakllar tilda uzoq davr mobaynida yashab kelgan va jamiyat boshqaruvidagi ma‘naviy-nazorat tizimining muhim elementlaridir.

Rus tilida “xalyalni” va “xaram” kabi derivatlar yaratilgani haqida maqolada qayd etilgan fikrlar bilan qiyos qilinganda, o‘zbek tilidagi jarayonning ancha tabiiy va qadimiy ekanini ko‘rish mumkin. Rus tilida bunday derivatlar yangi ijtimoiy ehtiyoj asosida yaratilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida ular tilning uzoq tarixiy tabiati bilan bog‘liq holda mavjud bo‘lib kelgan.

Madaniy nuqtai nazardan, halol-harom konsepti xalqning dunyoqarashidagi ikki polyusli sistema sifatida namoyon bo‘ladi. Bu sistema insonning har bir harakatini axloqiy baholashga, ichki irodani tarbiyalashga xizmat qiladi. Halol hayot kechirish va haromdan uzoq turish insonning hayotiy maqsadi sifatida ko‘riladi.

Shuning uchun ham halol va harom tushunchalari o‘zbek tilida semantik yoki grammatik kategoriya bo‘lib qolmay, balki madaniy-axloqiy tafakkurning asosini tashkil etadi. Tildagi har bir ibora, sintaktik tizimdagi har bir kuchli ritorik birikma ushbu ikki polyusga bog‘lanib keladi. Demak, halol va harom tushunchalari til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirning eng jonli misollaridan biridir.

Xulosa. O‘tkazilgan keng qamrovli tahlil shuni ko‘rsatadiki, “halol” va “harom” tushunchalari o‘zbek tilida faqat diniy mazmunga ega bo‘lgan leksema emas, balki jamiyatning ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy tartibini belgilaydigan universal kategoriyalardir. Ular tarixiy jihatdan islomiy huquq va odob-axloq tizimidagi tamoyillar asosida shakllangan bo‘lsa-da, zamonaviy hayotda yangi pragmatik vazifalarni bajarmoqda.

“Halol” tushunchasi insonning ichki pokligi, halol mehnat va halol daromad idealini belgilaydi. Bozor munosabatlari sharoitida u sifat, xavfsizlik va ishonch ramziga aylanib, mahsulot va xizmatlar sohasida muhim sertifikatga aylandi. Halollik mustaqillik davrida milliy o‘zlik va iqtisodiy raqobatning asosiy mezon sifatida yuksak qiymat kasb etdi.

“Harom” esa zamonaviy jamiyat ongida korrupsiya, huquqbuzarlik, aldov, nohaqlik, nopoklik va jamiyatga qarshi harakatlarning umumiy nomi sifatida mustahkamlandi. U jamiyatdagi axloqiy nazoratning asosiy vositasiga aylandi va fuqarolik pozitsiyasini ifodalovchi kuchli kategoriya sifatida shakllandi.

Ushbu tushunchalarning semantik, pragmatik va madaniy quvvati o‘zbek tilida juda keng bo‘lib, ular tilning ichki tuzilishi va jamiyat ongidagi qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘langan. Rus tilidagi “xalyal” va “xaram” leksemalari haqidagi tadqiqot ularning o‘zbek tilidagi tabiatini yanada chuqur tushunish uchun nazariy asos vazifasini bajardi. Ushbu asos asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida halol va harom konsepti tilning semantik rivoji, metaforizatsiya jarayoni va jamiyat ongidagi ma‘naviy-axloqiy tartib bilan birgalikda shakllangan universal va doimiy qadriyatdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»// <https://izoh.uz/uz/word/halol>
2. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати»// <https://izoh.uz/uz/word/harom>

3. CAC/GL 24-19971 «Общие методические указания в отношении использования арабского термина «halal» («разрешено») [Электронный ресурс].//https://www.fao.org/input/download/standards/352/CXG_024r.pdf
4. Adiarni N., Fortunella A. The Analysis of Halal Assurance System Implementation (HAS 23000) in Fried chicken Flour Product: A Case study on XXX Brand // Atlantis Press: 2018. № 149. С. –57.
5. CAC/GL 24-19971 «Общие методические указания в отношении использования арабского термина «halal» («разрешено»). URL: <http://www.fao.org/faowhocodealimentary/shproxy/ru/?lnk=1&url=https%253A%252F%252Fworkspac.pdf>
6. Ўша жойда
7. Adiarni N., Fortunella A. The Analysis of Halal Assurance System Implementation (HAS 23000) in Fried chicken Flour Product: A Case study on XXX Brand // Atlantis Press: 2018. № 149. С. –57; CAC/GL 24-19971 «Общие методические указания в отношении использования арабского термина «halal» («разрешено») . <http://www.fao.org/faowhocodealimentary/shproxy/ru/?lnk=1&url=https%253A%252F%252Fworkspac.pdf>
8. <https://www.vietnam.vn/ru/khai-mo-tiem-nang-thi-truong-halal-toan-cau>
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Маҳсулот ва хизматларни «Ҳалол» талабларига мувофиқ сертификатлаштириш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» 2025 йил 1 февралдаги 57-сон қарори// <https://lex.uz/en/docs/7354717>
10. Рагасова, С., Хуснутдинов, А. А. Слова «халяль» и «харам» в современной русской речи // Вестник Ивановского государственного университета. Серия «Гуманитарные науки». – 2021. – №4. – С. 53–69.
11. Фозил қори Ёсин ҳожи ўғли. «Имом Бухорий» нашриёти. Т.:2020. 80 бет.
12. Эшимова Ш. Тропи деривация-метафоранинг қўлланилиш хусусиятлари. Хорижий филология №2, 2020 йил. Б.81

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).